

Mavzu: Soʻzning tovush tarkibini tahlil qilish



Aa *Sõz – aql uchun darvoza.*



1-mashq. Rebusni yechib, yashiringan soʻzlarni toping.



- Topgan soʻzlaringiz ishtirokida ogʻzaki gaplar tuzing.



2-mashq. Nuqtalar oʻrniga **a** yoki **o** unlilaridan mosini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

avt...bus, h...mmom, mukof...t¹, d...volamoq, p...rtfel, b...ho,
k...mbayn, j...vob, d...vlat, sh...mol, k...nki, t...mom, j...hon,
x...vf, **sent...br**, okt...br

- Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni boʻgʻinga ajratib yozing.
- Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.



3-mashq. Gaplarni boʻgʻinga ajratib yozing.

1. Kitob – gʻoyat qudratli kuch.
2. Hurmat qilsang, hurmat koʻrasan.
3. Agar men oz narsa bilganimni payqasam, koʻproq bilishga intilaman.



4-mashq. Nuqtalar o'rniga **o** yoki **o'** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni yozing.

k...fe, k...kat, koin...t, m...ljal, lim...n, p...chta, k...za, n...ta,
p...shna, q...pol, r...m, k...mpas, k...sib, ...pera, qat...r, sav...l,
s...ri, kos...v, metr..., p...lat

- Shu so'zlarning talaffuzi va imlosini yodda tuting.



5-mashq. Rasmlar nomiga harflar qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling.



- Hosil bo'lgan so'zlardan gaplar tuzing.



6-mashq. Nuqtalar o'rniga **i** yoki **u** unlilaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

sup...rgi, tut...n, tux...m, chumch...q, mush...k, burg...t,
qul...pnay¹, bulb...l, uz...m, o'q...vchi, ko'pr...k, o'qit...vchi,
qo'ng'...roq, to'qq...z, tug...n, o'tt...z, kum...sh

- Shu so'zlarning talaffuzi va imlosini yodda tuting.

